

ЖАС АЛЫМЛАРДЫҢ ИЛИМИЙ ИЗЕРТЛЕҮЛЕРИ

Илимий мақалалар топламы-І.

GIDROLIZLANGAN POLIAKRILAMID ERITMALARINING ELEKTR О'TKAZUVCHANLIGINI TADQIQ QILISH

Jamilya Kenesbaevna Dauletova

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bôlimi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqod instituti tayanch doktoranti

Raushan Kuuanishbaevna Dauletbaeva

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va Noorganik kimyo Instituti tayanch doktoranti

Jolmirza Tolibaevich Yusupov

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Fizik va kolloid kimyo kafedrasi o'qituvchi-stajyor

Amina Janabaevna Abilova t.f.f.d., (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bôlimi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqod instituti katta ilmiy xodim

Aziza Baxtiyarovna Abdikamalova, k.f.d, (DSc), prof.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va Noorganik kimyo Instituti katta ilmiy xodim

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14558223>

Annotatsiya. Ushbu maqolada gidrolizlangan poliakrilamidning elektr o'tkazuvchanlik xususiyatlari ko'rib chiqildi. Tadqiqod obiekti sifatida har xil haroratda gidrolizlangan poliakrilamid (NPA450, NPA470, NPA498) namunalari olindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kontsentratsiya ortishi bilan solishtirma elektr o'tkazuvchanligi qiymatlari ham ortadi. Gidrolizlangan namunalarning elektr o'tkazuvchanlik qiymatlari solishtirilganida, kalyiy saqllovchi PE namunalari yuqori o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.


Kalit so'zlar: poliakrilamid, elektr o'tkazuvchanlik, konsentraciya, gidroliz.

Kirish. Gidrolizlangan polimerlarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular suvda makroionlarga parchalanadi, buning natijasida ularning eritmalarini elektr tokini o'tkazadi. Eritmalarining elektr o'tkazuvchanligi poliion va past molekulyar og'irlikdagi antionlarining yig'indisi sifatida ifodalanishi mumkin. Polimer materiallari eritmalarining elektr o'tkazuvchanligiga asoslanib, ularning makromolekulasi holati, ya'ni ularning erituvchi molekulalari bilan o'zaro ta'siri va ionlanish darajalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish mumkin. [1; 2797-2810 b. 2; 920-924 b. 3; 237-238 b.]

Tajriba bo'limi. Elektrolitlar eritmalarining elektr o'tkazuvchanlik xususiyatlarini o'rganish uchun 0,01 dan 0,5 g/dm³ gacha bo'lgan konsentratsiyali PE eritmalarini tayyorlandi. Barcha o'lchovlar 25°C haroratda amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar 1-rasmida keltirilgan. Solishtirma elektr o'tkazuvchanligi 1/Om*sm da o'lchangan.

ЖАС АЛЫМЛАРДЫҢ ИЛИМИЙ ИЗЕРТЛЕҮЛЕРИ

Илимий мақалалар топламы-І.



1-rasm. Polielektrolit eritmalarining kontsentratsiyasiga ko'ra elektr o'tkazuvchanligining o'zgartirishi.

Diagrammaning egri chiziqlari shuni ko'rsatadiki, kontsentratsiya ortishi bilan (o'rganilgan qiymatlar oralig'ida) solishtirma elektr o'tkazuvchanligi σ (Ω/sm) qiymatlari ham ortadi. Ko'rinish turibdiki, dastlabki PAA va 50°C haroratda NaOH bilan gidrolizlangan PAA larning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi taxminan bir xil ekanligini ko'rish mumkin, bu ularning molekulalar holati va dissotsiatsiyalanish darajasining o'xshashligini ko'rsatadi.


O'rganilayotgan kontsentratsiyalar oralig'ida PAA namunalari va 70°C gacha bo'lган haroratda gidrolizlangan mahsulotlari uchun solishtirma elektr o'tkazuvchanlik qiymatlari bir xilda ortadi. Biroq, NaPAA98 namunasi uchun elektr o'tkazuvchanlik qiymatlari konsentratsiya qiymatlarining ortishiga qaraganda tezroq ortadi. Olingan ma'lumotlar gidrolizlovchi agentning tabiatidan qatiy nazar 98°C haroratda gidrolizlangan PAA namunalarining yuqori elektr o'tkazuvchanligini ko'rsatadi. Solishtirma elektr o'tkazuvchanlik qiymatlari ko'tarilishi ushbu namunalar tarkibida dissotsiatsiyalanuvchi guruhlarning ko'p miqdorda ekanligini ko'rsatadi.

Agar gidrolizlangan namunalarning elektr o'tkazuvchanlik qiymatlarini solishtirsak, kaliy saqlovchi PE namunalarini yuqori o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi (2-rasm), bu, ehtimol K^+ ionlarining Na^+ ga nisbatan yuqori molyar elektr o'tkazuvchanligiga bog'liq.



Molyar elektr o'tkazuvchanligining barcha PE konsentratsiyasiga bog'liqligi egri chiziqlari bosqichli shaklga ega (3-rasm).

ЖАС АЛЫМЛАРДЫҢ ИЛИМИЙ ИЗЕРТЛЕҮЛЕРИ

Илимий мақалалар топламы-І.



2-рasm. Solishtirma elektr o'tkazuvchanligining konsentratsiyaga bog'liqligi





ЖАС АЛЫМЛАРДЫҢ ИЛИМИЙ ИЗЕРТЛЕҮЛЕРИ

Илимий мақалалар топламы-І.

3-rasm. Molyar elektr o'tkazuvchanlikning polimer eritmalaridagi konsentratsiyasiga bog'liqligi.



Ko'riniб turibdiki, molyar elektr o'tkazuvchanligining polielektrolitlar kontsentratsiyasiga bog'liqligida anomaliya mavjud, bu ayniqsa NPAА98 namunasi uchun seziladi. O'zgarishning ushbu qonuniyatini yuqori konsentratsiyalarda ionlashtirilmagan ionogen guruhlar o'rtasida vodorod bog'lari hosil bo'lishi bilan izohlash mumkin, bu esa PE dissotsiatsiyalanish darajasining pasayishiga olib keladi. Suyultirilganda ion kuchi keskin pasayadi, bu ionlanish darajasining ortishiga va makromolekulyar kluboklarini qayta o'zgarishiga olib keladi, natijada elektr tokini uzatishda ishtirok etadigan ion holatidagi funktsional guruhlar soni ortadi. Shuning uchun bu yuqori haroratlarda olingan namunalar uchun molekulalar orasidagi vodorod bog'larning kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Olingan natijalar va ularning munozaralari. Molyar elektr o'tkazuvchanlik (λ) qiymatlariga asoslanib, $1/\lambda$ va λ^*C ning bog'liqligi asosida grafik qurildi (4-rasm). Ordinata bilan kesishgan joyda $1/\lambda^\infty$ (molyar elektr o'tkazuvchanligi) qiymati va polielektrolitlarning dissotsiatsiyalanish α darajasi topildi.



ЖАС АЛЫМЛАРДЫҢ ИЛИМИЙ ИЗЕРТЛЕҮЛЕРИ

Илимий мақалалар топламы-І.



4-rasm. $1/\lambda$ ning λ^*C ga bog‘liqligi.

Kislota soni ma’lumotlaridan foydalanib, tizimdagи H^+ va Na^+ ionlarining umumiyy miqdori topildi, ushbu ionlarning harakatchanlik qiymatlari yordamida polimer makroionlarining harakatchanlik qiymatlari tenglama yordamida hisoblab chiqildi:

$$\lambda^\infty = \lambda^{\infty+} + \lambda^{\infty-} \quad (1)$$

bu yerda, $\lambda^{\infty+}$ va $\lambda^{\infty-}$ - mos ravishda, sistemadagi kationlar va anionlarning harakatchanligi.

α ma’lumotlaridan foydalanib K – har bir namuna uchun disotsoatsiya konstantasi quyidagi tenglama asosida aniqlandi:

$$K = \frac{1}{tg\alpha(\lambda^\infty)^2} \quad (2)$$

Olingan ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Makroionlarning harakatchanlik va polimerlarning dissotsilanish konstantasi qiymatlari

Namuna	$\lambda^\infty, \text{sm}^2/\text{Om}^*\text{g}$	α	$K \cdot 10^{-4}$
PAA	3,051	0,66	6,8
NPA A50	2,576	0,13	2,10
NPA A70	1,417	0,29	3,67
NPA A98	3,273	0,33	3,11

Shunday qilib, olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 60-70 °C haroratda gidrolizlangan PAA yuqori molekulyar og‘irlik va struktura hosil qilish xossalari bilan tavsiflanadi, buning natijasida ushbu namunalarning molyar harakatchanligi dastlabki namunaga nisbatan bir oz pastroqdir.




2-jadval.

ЖАС АЛЫМЛАРДЫҢ ИЛИМИЙ ИЗЕРТЛЕҮЛЕРИ

Илимий мақалалар топламы-І.

PAA va uning gidrolizlangan shakllarining tarkibi va xususiyatlari

Namuna	C _N , %	Gidroliz darajasi, %	KC, мг NaOH/г
PAA	19,41	-	-
NPAA50	13,30	29,78	101
NPAA70	4,04	76,61	180
NPAA98	2,87	82,30	81



2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 98°C da olingan namuna azot miqdorining past qiymatlari va gidrolizning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Ushbu namunaning kislota soni esa 81 mg NaOH/g ni tashkil qilib, bu boshqa gidrolizlangan namunalarga qaraganda kamroq. Shu sababli, ushbu namuna yuqoriroq hidrofillikga ega bo'lib, -COONa gruhlari unumi va miqdori yuqori, bu namunalarning yuqori eruvchanligini isbotlaydi. 50°C da gidroliz (C-NH₂) amid guruhlarining karboksil, ularning esa karboksilat gruhlariga to'liq o'zgarishini ta'minlay olmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkin 50°C, 70°C va 98°C haroratda gidrolizlangan poliakrilamidning elektr o'tkazuvchanligi o'z-aro salishtirilganida harorat ortishi bilan elektr o'tkazuvchanlikning ham ortishi kuzatildi. Buning sababi sifatida harorat ortishi bilan elektrolit konsentraciyasining ortishini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari elektr o'tkazuvchanlik gidrolizlovchi agentning turiga ham bog'liqligi kuzatildi. Yani,

ЖАС АЛЫМЛАРДЫҢ ИЛИМИЙ ИЗЕРТЛЕҮЛЕРИ

Илимий мақалалар топламы-І.

NaOH bilan gidrolizlangan PAA ga nisbatan KOH bilan gidrolizlangan PAA ning elektr o‘tkazuvchanligi yo‘qoriligi aniqlandi.

Foydalanaligun adabiyotlar:

1. Aziza Abdikamalova, Shakhnoza Kuldasheva, Izzat Eshmetov, Dilmurad Abdurakhimov, Ilxomjon Akhmadjanov, Sanjarbek Mamayusupov. Polymers as soil structure-forming agents (overview). annals of forest research // Jornal of Forestry and Environmental Sciences Ann. For. Res. 65(1): 2797-2810 p, 2022 y. <https://www.e-afr.org>.
2. Axmadjonov I.L., Kuldasheva Sh.A., Abdikamalova A.B., Abdurakhimov D.X., Abdusamatov S.M Synthesis of water-soluble polymers for structure producer on mobile sand-soils // International Scientific and Scientific-Practical Online Conference on the topic "Ensuring Security Life Activity in the Sectors of the Economy: Perspectives, Problems of Social and Technical Systems " Novateur Publications, Pune, Maharashtra, India JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN: 2581-4230, May 25th – 26th 2021. 920-924 vol. [Website: journalnx.com](http://journalnx.com).
3. Boymirzaev A.S., Kuldasheva Sh.A., Abdurahimov D.X., Abdullaev O.O. Gidrolizlangan poliakrilamidning elektrostatik xossalarini o`rganish // Akademik A.G'.G'aniev va akademik N.A.Parpiev xotirasiga bag`ishlangan “Kompleks birikmalar kimyosi va analitik kimyo fanlarining dolzarb muammolari” respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami (2022 yil 19-21 may). Termiz: “TerDU bosmaxonasi”, 2022. 1-qism, 237-238 b.